



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА

Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

**Small business and private
entrepreneurship**

**Малый бизнес и частное
предпринимательство**



“SAMARQAND VILOYATIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI”

Togayeva Dilnoza Azamatovna

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Тогоева Дилноза Азаматовна

DEVELOPMENT TRENDS AND PROSPECTS OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP IN SAMARKAND REGION

Togayeva Dilnoza Azamatovna

Received: May 11, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari va uning istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hududda faoliyat yuritayotgan oilaviy tadbirkorlik subyektlarining asosiy yo'nalishlari, ularning iqtisodiyot va aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni o'rganildi. Shuningdek, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash choralari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilindi. Maqolada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, daromad manbalarini kengaytirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Oilaviy tadbirkorlik, hududiy iqtisodiyot, Samarqand viloyati, kichik biznes, bandlik, davlat qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik subyektlari.

Abstract. This article analyzes the development trends and future prospects of family entrepreneurship in the Samarkand region. The study examines the main areas of activity of family-owned businesses and their role in regional economic development and employment generation. Particular attention is paid to state support mechanisms, including financial and institutional assistance, as well as the key challenges faced by family entrepreneurs. Based on the analysis, practical recommendations are proposed to enhance the sustainability of family entrepreneurship, expand income sources, and improve social welfare in the region.

Keywords. Family entrepreneurship, regional economy, Samarkand region, small business, employment, state support, economic development, family-owned enterprises.

Аннотация. В данной статье анализируются тенденции развития и перспективы семейного предпринимательства в Самаркандской области. В ходе исследования рассмотрены основные направления деятельности субъектов семейного бизнеса, а также их роль в обеспечении занятости населения и развитии региональной экономики. Особое внимание уделено мерам государственной финансовой и институциональной поддержки, существующим проблемам и путям их решения. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на устойчивое развитие семейного предпринимательства, расширение источников доходов и повышение уровня социального благосостояния в регионе.

Ключевые слова. Семейное предпринимательство, региональная экономика, Самаркандская область, малый бизнес, занятость населения, государственная поддержка, экономическое развитие, субъекты семейного бизнеса.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi bandligini ta'minlash, daromadlar barqarorligini oshirish hamda

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda oilaviy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy



tadbirkorlikning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilaviy tadbirkorlik aholi tashabbuskorligini oshirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va kambag'allikni qisqartirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Samarqand viloyati iqtisodiy salohiyati, qulay geografik joylashuvi, boy mehnat resurslari hamda tarixan shakllangan hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish an'analari bilan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda so'nggi yillarda davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozli kreditlar, subsidiya va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi ushbu sohada ijobiy o'sish tendensiyalarini yuzaga keltirdi.

Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari, boshqaruv ko'nikmalari, innovatsion faoliyatni joriy etish hamda mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Mazkur holatlar Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish va uning istiqbollarini aniqlashni dolzarb masalaga aylantiradi. Ushbu mavzu doirasida oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlik aholining bandligini ta'minlash va daromad manbalarini diversifikatsiya qilishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Viloyatda oilaviy tadbirkorlik asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, hunarmandchilik, savdo, xizmat ko'rsatish hamda chorvachilik yo'nalishlarida faol rivojlanmoqda. Ushbu sohalar hududning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari va tarixiy an'alariga mosligi bilan ajralib turadi.

So'nggi yillarda davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar Samarqand viloyatida mazkur faoliyat turining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va subsidiya mexanizmlari natijasida ko'plab oilalar tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va aholi farovonligining oshishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining aksariyati kichik hajmda faoliyat yuritayotgani, texnologik jihatdan yetarli darajada rivojlanmagani va bozor infratuzilmasiga to'liq integratsiyalanmagani ularning iqtisodiy samaradorligini cheklab qo'ymoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlik rivojlanishida bir qator ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Avvalo, oilaviy tadbirkorlik subyektlari sonining yil sayin ortib borishi hududda tadbirkorlik muhitining yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar ishtirokidagi oilaviy biznes loyihalarining ko'payishi ijtimoiy ahamiyatga ega tendensiya sifatida e'tirof etiladi.

Ikkinchidan, oilaviy tadbirkorlik faoliyatida mahsulot va xizmatlar turlarining diversifikatsiyalanishi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

kuzatilmoqda. An'anaviy sohalar bilan bir qatorda, zamonaviy xizmatlar, turizmga oid xizmatlar, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va onlayn savdo yo'nalishlari rivojlanmoqda. Bu esa oilaviy biznesning bozor talablariga moslashuvchanligini oshirmoqda.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi asta-sekin ortib bormoqda. Ayrim oilaviy tadbirkorlik subyektlari elektron savdo platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z mahsulotlarini realizatsiya qilishni yo'lga qo'ymoqda. Biroq bu jarayon hali keng miqyosda joriy etilmagan bo'lib, axborot texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalar yetishmasligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda.

Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda qator muammolar mavjud. Jumladan, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, kredit garovlari bilan bog'liq muammolar, biznesni boshqarish va marketing bo'yicha yetarli bilimlarning yo'qligi oilaviy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, sifat standartlariga moslashtirish va tashqi bozorlarga chiqish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish holatini tahlil qilish jarayonida ushbu sohaning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tobora ortib borayotganini ko'rish mumkin. Oilaviy tadbirkorlik subyektlari, avvalo, aholini o'zini-o'zi band qilishning samarali shakli sifatida namoyon bo'lib, mehnat bozorida bosimni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatda oilaviy tadbirkorlikning asosiy qismi qishloq hududlariga to'g'ri keladi. Bu holat qishloq joylarda sanoat korxonalari va yirik ish beruvchilarning yetishmasligi bilan izohlanadi. Oilaviy biznes asosan kichik hajmda tashkil etilgan bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlari cheklangan, texnik va texnologik ta'minot darajasi pastligicha qolmoqda. Natijada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi nisbatan yuqori bo'lib, raqobatbardoshlik darajasi yetarli emas.

Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili shuni anglatadiki, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining aksariyati o'z faoliyatini imtiyozli kreditlar hisobiga boshlamoqda. Biroq kredit mablag'laridan foydalanish samaradorligi barcha subyektlarda bir xil emas. Ba'zi hollarda biznes-rejalarning puxta ishlab chiqilmagani, bozor talabining yetarlicha o'rganilmagani kredit resurslarining maqsadsiz sarflanishiga olib kelmoqda. Bu esa oilaviy biznesning qisqa muddat ichida faoliyatini to'xtatishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bandlik nuqtayi nazaridan olib qaralganda, oilaviy tadbirkorlik har bir xo'jalik doirasida kamida 2–5 nafar ish o'rnini yaratishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarning mehnat faoliyatiga jalb etilishi ijobiy ijtimoiy natija sifatida baholanadi. Shu bilan birga, mehnat unumdorligi pastligi va zamonaviy boshqaruv usullarining yetishmasligi sababli yaratilayotgan ish o'rinlari barqarorligi har doim ham ta'minlanmayapti.



Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar Samarqand shahri va yirik tumanlarda oilaviy tadbirkorlik nisbatan faol rivojlanayotganini, chekka hududlarda esa infratuzilma, logistika va bozor imkoniyatlarining cheklanganligi sababli sustroq ekanini ko'rsatadi. Bu esa hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish uchun manzilli qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlik rivojlanishi uchun yetarli

imkoniyatlar mavjudligini, biroq mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, boshqaruv va marketing ko'nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan taklif va tavsiyalar oilaviy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

1-jadval

2020–2024-yillarda Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlik rivojlanish ko'rsatkichlari

Yillar	Oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni (mingta)	Yaratilgan ish o'rinlari (mingta)	Ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmi (mlrd so'm)
2020	18,5	42,0	1 250
2021	20,3	46,8	1 520
2022	22,7	52,4	1 890
2023	25,1	58,6	2 340
2024	27,4	64,9	2 980

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2020-yilda 18,5 mingta bo'lgan oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yilga kelib 27,4 mingtagacha yetgan. Bu esa besh yil davomida qariyb **1,5 barobar o'sish** kuzatilganini anglatadi.

Yaratilgan ish o'rinlari soni ham yillar kesimida mutanosib ravishda oshib borgan. 2020-yilda 42 mingta ish o'rni yaratilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 64,9 mingtagacha yetgan. Mazkur holat oilaviy tadbirkorlikning aholi bandligini ta'minlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Ayniqsa, qishloq hududlarida va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar orasida oilaviy biznesning bandlik manbai sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda.

Ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmi tahlili ham ijobiy dinamikani ko'rsatadi. 2020-yilda 1 250 mlrd so'mni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 2980 mlrd so'mga yetgan. Bu esa oilaviy tadbirkorlikning nafaqat son jihatdan, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ham rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, subyektlar sonining o'sishi ishlab chiqarish hajmining o'sishiga nisbatan biroz tezroq kechmoqda. Bu esa ayrim oilaviy tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmayotganini va mehnat unumdorligini oshirish zarurligini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlik hududiy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib borayotganini ko'rsatdi. So'nggi yillarda oilaviy tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi, yaratilayotgan ish o'rinlari va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hamda xizmatlar hajmining o'sishi ushbu sohada ijobiy rivojlanish tendensiyalari

mavjudligini tasdiqlaydi. Oilaviy tadbirkorlik, ayniqsa, qishloq hududlarida aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini kengaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining aksariyati kichik hajmda faoliyat yuritmoqda, ishlab chiqarish quvvatlari va texnologik darajasi pastligicha qolmoqda. Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, marketing va boshqaruv ko'nikmalarining yetishmasligi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi ushbu sohaning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

Umuman olganda, Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy, mehnat va institutsional imkoniyatlar mavjud bo'lib, mazkur sohani tizimli qo'llab-quvvatlash orqali uning hududiy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini yanada oshirish mumkin.

Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

1. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish

Oilaviy tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kreditlar hajmini oshirish, garov talablarini soddalashtirish hamda mikromoliyalashtirish tizimini kengaytirish zarur.

2. Kasbiy va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish

Oilaviy tadbirkorlar uchun biznes-rejalashtirish, marketing, moliyaviy boshqaruv va raqamli savdo yo'nalishlarida qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish lozim.

3. Innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish

Oilaviy tadbirkorlik subyektlarini elektron savdo



platformalari, onlayn to'lov tizimlari va raqamli marketing vositalaridan foydalanishga rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

4. Kooperatsiya va klaster tizimini rivojlantirish. Bir xil yo'nalishda faoliyat yuritayotgan oilaviy tadbirkorlik subyektlarini kooperatsiya asosida birlashtirish orqali ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sifati oshirilishi mumkin.

5. Hududiy yondashuvni kuchaytirish. Chekka va kam rivojlangan hududlarda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqish hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

6. Eksportga yo'naltirilgan oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash. Mahsulotlarni sertifikatlash, brendlash va tashqi bozorlarga chiqarish jarayonlarida oilaviy tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatish zarur.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Togayeva Dilnoza Azamatovna Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali "Gumanitar va jtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti v.b., PhD / Тогаева Дилноза Азаматовна PhD, и.о. доцента кафедры «Гуманитарные и социальные науки» Самаркандского филиала Ташкентского университета информационных технологий / Togayeva Dilnoza Azamatovna PhD, Acting Associate Professor, Department of Humanities and Social Sciences Samarkand Branch of Tashkent University of Information Technologies

E-mail: togayevadilnoza44@gmail.com

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni.
6. Xolmo'minov Sh.R., G'ulomov S.S. Tadbirkorlik faoliyati asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. Abdullayev Yo., Karimov B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
8. Rasulov A., To'xtasinov D. Hududiy iqtisodiyot va tadbirkorlik. – Toshkent, 2021.
9. Qodirov A. Oilaviy biznesni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari.
11. Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy hisobotlari.
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari.
13. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy sayti.
14. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz